https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

UDK: 373.24

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi magistri
Amirova Hafiza Olimjonovna
Email: amirovahafiza38gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-1054-9922

MTTNING 6-7 YOSHLI GURUHLARIDA DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA “CHIQINDILARNI SARALASH” METODIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6–7 yoshli bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko ‘nikmalarini shakillantirishda “Chiqindilarni saralash” nomli didaktik o‘yinning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida kelib chiqayotgan muammolar, havoning ifloslanishi, tabiiy resurslarining kamayishi, tabiatni chiqindilardan tozalash va saralash kabi muammolarga yechimlar kichik metod orqali ko‘rsatib berilgan. Ushbu metodda qatnashgan bolalardagi o‘zgarishlar qayd etilgan va ularning natijasi keltirib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: “Chiqindilarni saralash”, yashil iqtisodiyot, rangli konteynerlar, rag‘batlantiruvchi kartochkalar, didaktik o‘yinlar, atrof-muhitni asrab-avaylash.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО

Аннотация: В статье анализируются психологические и педагогические основы развития творческих способностей у детей дошкольного возраста. Теоретическая часть исследования раскрывает сущность творчества и факторы, его формирующие, подчеркивая роль игровой деятельности. Кроме того, систематический обзор, проведённый в 9-м ДМТТ Ольтинсойского

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

района, изучил индивидуальные, семейные, образовательные и социокультурные факторы, влияющие на развитие творческого мышления. Исследование акцентирует внимание на значении личной креативности педагога, образовательной среды и сотрудничества с родителями. Даны практические рекомендации по развитию творческой деятельности в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: Творчество, дошкольное образование, творческое мышление, игровая деятельность, инновационные методы, педагогическая среда.

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical foundations of developing creative abilities in preschool children. The theoretical part of the study explains the essence of creativity and the factors that shape it, highlighting the role of play activities. Additionally, a systematic review conducted at the 9th DMTT in Oltinsoy district examined individual, family, educational, and socio-cultural factors affecting the development of creative thinking. The study emphasizes the importance of the teacher's personal creativity, the educational environment, and parental cooperation. Practical recommendations are provided to enhance creative activity within the preschool education system.

Keywords: Creativity, preschool education, creative thinking, play activity, innovative methods, pedagogical environment.

KIRISH

Bugungi kunda global ekologik muammolar - atmosfera havosi ifloslanishining kuchayishi, ichimlik suvi resurslarining kamayishi, chiqindilar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

hajmining ortishi va tabiiy o‘simliklar va hayvonlarning kamayib borishi - kelajak farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Jamiyatning har bir a’zosi uchun, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatlarni nazorat qilish davlat miqyosidagi muhim voqealardan biriga aylangan. Sababi tabiatni asrashni kattalardan emas balki maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlash kerak. Hozirgi vaqtda ekologik madaniyatni yaxshilash, yosh avlodni atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda tarbiyalash, ta’lim tizimida ekologik tarbiyani joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida 6–7 yoshli bolalarda ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiyalarini ishlab chiqarish alohida ahamiyatga ega. Tabiat hodisalarini chuqurroq idrok etish tabiatga nisbatan mas’uliyatli bolishni shakllantiradi. Didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy, qiziqarli va samarali metodlardan biri bo‘lib ular orqali ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayoni yanada faol va mazmunli kechadi.

6–7 yoshli bolalarda didaktik o‘yinlar orqali kuzatuvchanlik, mulohaza yuritish, tahlil qilish, guruhda ishlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Eng muhimi, bunday o‘yinlar orqali bolalar tabiatga mehr, tirik mavjudotlarga nisbatan g‘amxo‘rlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni toza saqlashga doir tushunchalar shakllanadi.

Raqamli texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagi ekologik holatni tushunib yetishi muammo tug‘dirmaydi. Virtual tasvirlar, interfaol muhit va multimedia resurslari tufayli boalar dunyodagi tabiiy o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishishlari yanada osonlashmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon tarbiyachilardan o‘yin texnologiyalarini yangicha talqin qilish, o‘yin mazmunini bolalarning real hayot faoliyatiga moslashtirish, ekologik o‘yin senariylarini kreativ tarzda ishlab

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

chiqishni talab qiladi. 6-7 yoshli bolalar uchun didaktik o‘yinlar tabiiy ekologik axborotni o‘zlashtirishida alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralidagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘irisida “gi PF-6108-son [1], 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to ‘g ‘irisida “gi PF-6108-son [2]farmonlari,O ‘ zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi faoliyatni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘irisida “ PQ-76-son qarori [3], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik talimni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to ‘g ‘irisida”gi 434-son qarori [4] hamda mazkur yo ‘nalishga taalluqli boshqa meyoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Prezident SH.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2025- yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb atalishi ham ekologiya bo‘yicha mahsus dasturni amalga oshirishni taklif etmoqda. Bu yashil madaniyatni shakllantirish , yani kelajakda toza mahsulotlarni istemol qilish uchun katta imkoniyatlar yaratilishi qayd etilgan.

USULLAR

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda ekologik ong va atrof-muhitni asrash kabi jarayonlarda didaktik o‘yinlar samarali vositalardan biri sifatida ko‘riladi [5]. Bog‘chadagi kundalik jarayonlar bolalar uchun interaktiv o‘yin faoliyatida ekologik bilimlar, ekologik amaliy xulq-atvorning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishini isbotlagan. Masalan, “Chiqindilarni saralash” (maktabgacha ta’limda bolalar uchun maxsus ishlab chiqarish pre-test va post-test orqali baholangan bo‘lib, didaktik o‘yinlar orqali muntazam ravishda ishlab chiqarilgan) bolalarning atrof-muhitni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

asrab-avaylash ko‘nikmalarini didaktik o‘yinlar orqali shakillantirish aniqlangan. Ushbu metodda aynan o‘yin shaklidagi topshiriqlar, harakatli mashg‘ulotlar, tabiat bilan amaliy faoliyat hamda muammoli obyektlarni hal qiluvchi o‘yinlar asosiy metodik vositalar qo‘llanilgan [6].

MTTda ushbu metodni amalga oshirish uchun, avvalo, quyidagi maqsad va vazifalarni aniqlab olish zarur: Bunda tajriba guruhiga didaktik o‘yinlar asosida mashg‘ulotlar olib borildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metodlar asosida olib boriladi. Tadqiqot natijalarida ikki guruhga ham ekologik bilim va xulqni baholovchi kichik diagnostik topshiriqlar (pro-test) berildi. Keyin 6–8 hafta davomida eksperimental tajriba guruhida didaktik o‘yinlar asosida maxsus ekologik mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Mashg‘ulotlarda “Tabiat qahramonlari”, “Toza muhit” kabi o‘yinlardan foydalanildi; bunda bolalar rasm chizish , tabiat, predmetlar va real obyektlar bilan ishladi. O‘yindagi tarbiyachi bolalarning harakatini kuzatib boradi, amaliy tekshiruv va ekologik muammolarga munosabatini qayd etadi. Tajriba yakunida har ikki guruhga yana bir bor baholovchi topshiriqlar (post-test) berilib, o‘zgarishlar tahlil qilindi [7].

Yuqorida keltirilgan metod MTTning 6–7 yoshli bolalaridan jami 90 nafar tarbiyalanuvchi jalb etildi. Tadqiqot ishtirokchilari 45 nafar tajriba guruhi va 45 nafardan iborat nazorat guruhi. Tajriba guruhida didaktik o‘yinlarga foydali ekologik mashg‘ulotlar muntazam ravishda tashkil etildi. 6-7 yoshli bolalarda “Chiqindilarni saralash” deb nomlanga mashg’ulotlarni olib borilishi belgilandi. Bunda tarbiyachilar bolalarga “Keling bolajonlar hozir biz sizlar bilan birgalikda “Chiqindilarni saralash” o’yinini o’ynaymiz” deya murojat qiladi [8]. Bolalarga konteynerlarni ko‘rsatishdan oldin shunday deyiladi: ”Chiqindilarni rangli konteynerlarga shunday tog‘ri solish kerakki ular bir-biriga aralashib ketmasin”. Chiqindi konteynerlar 3xil rangda bo‘ladi: sariq,yashil, qizil . Vazifani bajarish uchun konteynerlarning pastki qismida barglar, mevalar, o‘simliklar, qog‘ozlar, kartonlar , plastik idishlar , keraksiz mato bo‘laklari va boshqalar aralashtirilib

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mashg‘ulot xonasiga yoyib tashlandi, xonani tozalash maqsadida chiqindilarni maxsus idishlarga solish kerakligi aytildi.Maxshus rangli konteynerlarga qanday turdagi chiqindilar solinish kerakligi maxsus multimedialar orqali tanishtirib o‘tildi. Ushbu metod bolalarning aqliy qobilyatlarini rivojlanishiga yordam beradigan metodikalardan biri hisoblanadi. Bolalarga xonadagi narsalarni yig’ish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi. Tarbiyachilar tomonidan bolalarning qay darajada tog‘ri bajarilayotgani kuzatib turiladi.Vaqt tugagach 3ta quti ham tekshirilib chiqib qaysi guruh to‘g‘ri bajargani qayd etildi.

Ushbu metodikadan foydalanish 6-7 yoshli bolalarda tafakkurini rivojlantiruvchi uchun mo‘ljallangan metodika hisoblanadi.Rag‘batlantiruvchi material sifatida oldindan tayyorlangan maxsus kartochkalar tarbiyachilar tomonidan taqdim etildi. Dastlabki holatda 45 ta kartochka taqdim qilingan bo‘lib, u 3 guruhga bo‘linadi, har bir guruhda 15 tadan kartochka tarqatib berildi. Bu kartchkalarning rangi ham chiqindi konteynerlari bilan mos qizil, sariq va yashil bo‘lganligi sababli bolalar o‘zlarining jamoasi va konteynerlarini adashtirib yubormaydi.Har bir bolaga yetarli darajada maxsus kartochkalar tarqatildi.Guruhlar 3 xilda nomlandi:

- Birinchi guruh - sharikchalar.
- Ikkinchi guruh- sabzavotlar.
- Uchinchi guruh - tozalik buyumlari.

Har bir guruh uchun umumiy xarakterga ega bo‘lgan jihatlar quyidagilar hisoblanadi: Sharikchalar guruhi qizil konteynerga maishiy chiqindilar (batareya, yaroqsiz mahsulotlar) ni solishi kerak.


Sabzavotlar guruhi esa sariq konteynerga metall va plastik buyumlarni(idishlar, qog‘oz , salfetka, bumaga)

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tozalik buyumlari guruhi esa yashil konteynerlarga oziq-ovqat mahsulotlari (meva, o‘simlik sabzavotlar)ni solishi kerakligi tushuntirildi. Bu metodika bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash uchun samarali metodikalardan biri hisoblanadi.Bolalarning aqliy kamolotini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan mashg‘ulotning nazorat va tajriba guruhlarida qay darajada samarali bo‘lgani quyidagi diagrammada keltirilgan.



Yuqoridagi diagramma asosida ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, “Chiqindilkarni saralash” metodikasi orqali berilgan topshiriqlarni tajriba guruhida 45 nafar boladan o‘rtacha 30 nafari yetarlicha aniq javob bergan, 13 nafari esa noto‘g‘ri bajargan va 3 nafar bola umuman bajarishmagan . An’anaviy tarzda dars o‘tilgan nazorat guruhida esa 45 nafar boladan o‘rtacha 10 nafari yetarlicha aniq javob bergan, 15 nafari esa noto‘g‘ri bajargan va 20 nafar bola umuman bajarishmagan. Natija o’rtacha 44% ga yaxshilanganini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar tahlili sifat va miqdori statistik jihatdan ham ishlab chiqildi. Pre-test va post-test sinovidan keyingi o‘rtacha farqni aniqlash uchun

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ko‘rsatkichlar va o‘rtacha ballar solishtirildi. Bolalarning ekologik xulq-atvoridagi sifat o‘zgarishlari aniqlandi. “Chiqindilarni saralash” metodi tajriba guruhida ekologik faollik ko‘rinishdagi minimal o‘zgarishlar kuzatildi.

O‘tkazilgan faoliyatlar natijasida quyidagi o‘zgarishlar va yutuqlar kuzatildi.

6–7 yoshli bolalarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlari natijasi

	Guruh 1	Guruh 2	Guruh 1	Guruh 2
Ko‘rsatgichlar	Tajriba-pre	Tajriba-post	Nazorat-pre	Nazorat-pre
Ekologik bilim	42	84	43	48
Amaliy ko‘nikma	38	82	39	44
Tbiatga munosabat	40	88	41	46

MUHOKAMALAR

Tadqiqot apparati 6–7 bolalar atrof-muhitni asrashga oid bilim, ko‘nikma va munosabat ko‘rsatkichlari tajriba va nazoratning kesimida solishtirildi. Ushbu metod qo‘llanilganidan so‘ng tajriba guruhida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi.

Chiqindilarni saralashga doir ekolgik bilimlar tajriba guruhida 42 ballgacha ko‘tarildi, bu esa bolalarning tabiiy resurslar, ekologik toza mahsulotlardan foydalanish va chiqindilarni duch kelgan joyga tashlamaslik haqida tasavvurga ega bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Amaliy ko‘nikmalari esa 38 balldan 82 ballgacha oshgani bolalarning ekologik faoliyati davomidagi jarayonlarni yaxshilashga yordam beradi. Tabiatga nisbatan munosabat ko‘rsatkichi ham 40 balldan 88 ballgacha oshdi.

Nazorat guruhida esa bunday o‘sish yuqori darajada qayd etilmadi. Ko‘rsatkichlar faqat 3-5 ball atrofida o‘zgargan, bu esa o‘yin texnologiyalari qo‘llanilmaganda harakat sekin kechishini tasdiqlaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqotda ta‘lim metodikasini ta’minlashga oid mavjud nazariy qarashlarni boshqarish, o‘yin texnologiyani mazmuni, jarayon va shakl qo‘llashning yangi yo‘nalishlarini ochib berdi. Natijalar maktabgacha ta’limdagi integratsiya tizimlarining darajasini isbotlab, tarbiyalashda o‘yin metodlarining ilmiy darajasini ko‘rsatib berdi. Tadqiqot maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun bevosita amaliy qiymatga ega. Didaktik o‘yinlar bolalarning ekologik ongini yaxshilash, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabatni oshirish va kundalik hayotda ekologik xavfsizlikni qo‘llashga doir bilimga ega bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Didaktik o‘yinlar ekologik bilimni yaxshilash, bolalarda tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini yaxshilashga ta’sir ko‘rsatdi. Bolalar „Chiqindilarni saralash” didaktik o‘yinlari yordami bilan amaliy mashg‘ulotlarda faol qatnashadi, uni amalda qo‘lladi va o‘zlarining kundalik hayotiga tadbiq etishni o‘rgandi. Shu bois didaktik o‘yinlardan faol foydalanish maktabgacha ta’limda ekologik tarbiyani oshiruvchi innovatsion pedagogik metodlardan biri sifatida e’tiborga olinadi.

Tajriba yordamida ma’lumotlarni yig‘ishning bir necha usullari qo‘llanildi. Bunda bolalarga tabiatda mavjud bo‘lgan mahsulotlar berildi, to‘g‘ri ekologik buyumlar tanlandi, rangli qutilarga chiqindilarni tashlash va ularni saralashga oid vaziyatli topshiriqlar beriladi. Ma’lumot yig‘ish usulida tarbiyachilar tomonidan olib borilgan sistematik kuzatuvlar qo‘llanildi. Bunda bolalarning o‘yin jarayonidagi, ekologik muammolarga munosabati, mustaqil ranglarni bir-biridan ajratishi, keraksiz mahsulotlarni tartib bilan ajratishi kuzatuv jadvallariga qayd etib borildi. Tarbiyachilar bilan qisqa suhbatlar o‘tkazilib, bolalardagi xulq-atvor o‘zgarishlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlar olindi.Bolalar mashg‘ulotdan so‘ng qay darajada tozalikka e’tibor qaratilishi kuzatildi.MTT ning tashqi va ichki hududida tozalikka e’tibor qaratishi yuqori darajada samarasini ko‘rsatdi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularga tog‘ri ta’lim va tarbiya berish jamiyatimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda zarur bilim, ijtimoiy kompensatsiyalarni kuzatishda maktabgacha ta’lim tizimi, oila balki muhitining ham o‘rni beqiyosdir. Bolaning intellektual va psixologik rivoji, maktab ta’limiga tayyorgarligi turli testlar, metodikalar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ota-onalarning bolalar bilan 6-7 yosh oralig‘ida maxsus metodik o‘yinlar o‘tkazishi, idrok, tafakkur, nutq va mustaqil fikrlash imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Buning uchun ota-onalar pedagogik va ilmiy bilimlarini muntazam boyitib borishlari kerak.

Oila, ta’lim-tarbiyaning ijtimoiy instituti sifatida komil insonni tarbiyalash jarayonida davlat va ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi kerak. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini belgilash, ularga metodik adabiyotlar taqdim etish muhim vazifa sanaladi. Ota-onalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalarining faoliyati turlari haqida tarbiyaviy mashg‘ulotlar tashkil etilishi zarur. Bunday mashg‘ulotlar bolalarning nutqini boyitish, fikr yuritish, o‘z fikrini aniq ifodalash hamda muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Kelgusida ishlab chiqarishni ta’minlash, ota-onalarning pedagogik savodxonligini hamda ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarning qo‘llanilishini oshirishga yordam berishni davom ettirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Didaktik o‘yinlar orqali bolalar muammoni aniqlash, yechim topish va yordam ko‘rsatish kabi amaliy kompetensiyalarni egallaydi. Ushbu tadqiqot orqali tarbiyachilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqarish, dars jarayonlariga mos o‘yinlar majmuasi va ekologik tarbiyaga oid metodik qo‘llanmalarni boyitishda foydalanish mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqot jarayonida bir qator amaliy va tashkiliy tekshirish kuzatildi. Avvalo, bolalarning o‘yin faoliyatidagi faolligi turlicha bo‘lgani sababli barcha ishtirokchilar teng darajada ma’lumot yig‘ish oson bo‘lmadi. Bazi bolalar o‘yin topshiriqlarida faol bo‘lsa, ayrimlari jarayonga kirishish uchun ko‘proq vaqt talab qildi. Bunga sabab bolalarning turli ranglar nomini bilmasligi bo‘ldi. Bu holat o‘yinlarni tashkil etishda qo‘shimcha moslashuvlarni talab qildi. Tarbiyachilar yangi o‘yin texnikalarini o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha yo‘riqnoma va metodik ko‘nikmalarni talab qildilar. Bu esa jarayonni boshqarishda vaqt va resurs yetishmovchiligi qo‘shimcha yuklama yaratdi.

O‘yin jarayonida bolalarning emotsional holati tez-tez o‘zgarib turdi. Shu sababli tarbiyachilar uchun quyidagi amaliy tavsiyalar beriladi.Bazi ekologik o‘yinlar uchun qo‘shimcha materiallar yoki tabiiy obyektlardan foydalanish zarur.Materiallarni muntazam tayyorlab turish mashg‘ulotda yuqori samara beradi. Bolalarga yil, fasl, ob-havo vaqtiga mos o‘simliklar, mevalar va sabzavotlarni yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Ekologik o‘yinlarning 3-6 oylik yoki 1 yillik ta’sirini saqlab qolish uchun ekologik xulq-atvor shakllanish jarayonini chuqurroq o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ekologik mobil ilovalar,multimedia vositalari, interaktiv elektron o‘yinlar bolalar ekologik madaniyatiga ta’siri zamonaviy izlanishlar uchun istiqbolli yo‘nalishlardan biri sanaladi. Ekologik o‘yinlarni samarali qo‘llashda tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi yuqori sifatga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakat strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. PF-4947 02/07/2017. (lex.uz)
2. 2017-yil 21-aprel “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat boshqaruvi” takomilashtirish to‘g‘risida”gi PF-5024-son farmoni. talim-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbillari tog‘risida”gi PF-6108 son farmoni PF-6108-sonli 06.11.2020 (lex.uz)

3. O‘zbekistan Republicasi Presidentining “Atrof-muhitni tozalash hamda ekologik nazorat davlat organlari hosil qilish tashkil etish chora-tadbillari to‘g‘irisida” PQ-76-son karori. PQ-76-son 30.12.2021 yil. (lex.uz)
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqomasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi sini oshirish tugrisida”gi 434-son karori. 434 - 27.05.2019 y. (lex.uz)
5. Abdullayeva, N. va Qodirova, M. (2021). *Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya metodlari* . Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Elkonin, D. B. (1999). *Psixologiya igry* . Moskva: Vlados.
7. Jalolova, R. (2023). Ekologik tarbiya jarayonida interaktiv o'yinlarning o'rni. *Ta'lim innovatsiyalari* , 5(1), 34–39.
8. Rasulova, L. (2021). *Maktabgacha ta’lim va korxona* , 4(3), 27–33.